



MAISHIY JANRDA KOMPOZITSIYALAR ISHLASH. (TASVIRIY SAN'AT)

Bobonazarov Sherali Ulug'murodovich

*Navoiy davlat universiteti .Tasviriy san'at va
muhandislik grafikasi kafedrası katta o'qituvchisi.
(tel: 91.331 89 60)*

Annotatsiya:

Tasviriy san'at o'zining boy tarixi va madaniyati bilan birga, qator janrlarni o'z ichiga oladi. Ushbu janrlarnig orasida maishiy janr, ya'ni insonlarning kundalik hayotini, turmush tarzini, urf odatlarini o'zida aks ettiruvchi san'at turi sifatida, alohida o'rin egallaydi. Bugungi kunda maishiy janr, O'zbekiston tasviriy san'atida nafaqat estetik jihatidan, balki xalqimizning ijtimoiy va madaniy hayotini, uning qadriyatlarini ifodalashda muhin ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlr: Kompozitsiya, maishiy janr, kolorit, perspektiva, muvozanat, simmetriya, dinamika , polotno, kartina.

РАБОТА С КОМПОЗИЦИЯМИ БЫТОВОГО ЖАНРА В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ

Бобоназаров Шерали Улугмуродович

*Навоийский государственный университет. Старший преподаватель
кафедры изобразительного искусства и инженерной графики.*

Annotatsiya:

Изобразительное искусство, наряду с богатой историей и культурой, включает в себя ряд жанров. Среди них особое место занимает бытовой жанр, то есть вид искусства, отражающий повседневную жизнь, образ жизни и обычаи народа. В изобразительном искусстве Узбекистана оно играет важную



роль не только в эстетическом плане, но и в выражении социальной и культурной жизни народа, его ценностей.

Ключевые слова: Композиция, бытовой жанр, колорит, перспектива, равновесие, симметрия, динамика, холст, картина.

WORKING WITH EVERYDAY GENRE COMPOSITIONS IN FINE ARTS

Sherali Ulugmurodovich Bobonazarov

*Navoi State University. Senior Lecturer, Department of Fine Arts and
Engineering Graphics.*

Annotation:

Fine art, along with its rich history and culture, encompasses a number of genres.

Among these, genre art, a form of art that reflects everyday life, lifestyle, and customs, occupies a special place. In the fine arts of Uzbekistan it plays an important role not only not only in an aesthetic sense, but also in expressing the social and cultural life of the people, their values.

Key words: Composition, genre painting, color, perspective, balance, symmetry, dynamics, canvas, painting.

Tasviriy san'atning jadal rivojlanishi bilan birga rangtasvir sohasida yangidan yangi janrlar paydo bo'la boshladi va shular qatorida maishiy janr tushunchasi vujudga keldi.. Kundalik turmushda yuz beradigan voqea va hodisalarni o'zida aks ettiruvchi bunday kartinalar maishiy janrdag asarlar deb ataladi.

Ushbu janrdagi mavzuli asarni yaratishda mazmun va g'oyani ochib beruvchi voqea bilan bog'liq hodisalarni eng qiziqarli holatini tasvirlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Insonlarning turmush tarzi, kundalik sodir bo'layotgan voqea hodisalarni ifodalovchi ushbu janr azaldan rivojlanib, sayqallanib kelmoqda. Boshqa janrlarda



bo'lgani kabi bu janrning ham o'ziga xos o'ziga mos bir qancha talablari mavjud. Kompozitsiyada mazmun va g'oyani ma'lum vositalar yordamida yoritib berish: Shu bilan birga har bir rassom- fazoviy uzoqlashish, kompozitsiya markazi, asosiy va ikkinchi darajali buyumlar soya yorug'ligi, rang, kolorit munosabatlari, perspektiva qonunlari, muvozanat, simmetriya, dinamika vazifalaridan to'gri foydalanish yaxshi natija beradi.

“San’at asarida, uyg'unlikni yarata turib, uning ikki zaruriy shartini bajarish kerak: birinchisi - muvozanat, ikkinchisi - umumiylik va bir-biriga bo'ysunishlik. Muvo-zanat simmetrik va asimmetrik kompozitsiyalarda turlicha namoyon bo'ladi. Simmetriya o'zicha kompozitsiyada muvozanatlashtirish kafolati bo'la olmaydi¹.”

“Kompozitsiya mashg'ulotlarida ijodiy jarayonning boshlang'ich bosqichidan so'ng avvalo detal tanlash, detallarni o'z joyiga o'rinli qo'yish bosqichida yangi innovatsiyadan foydalanish tajribalarni sinab ko'rish yaxshi natija beradi.

Shu bilan birga an'anaviy usullar ham o'z o'rnida yaxshi samara berayotganini ham unutmagan holda yangi texnologiyalarni qo'llashni zamon talabi bo'lib qolmoqda.

Shu ma'noda kompozitsiya mashg'ulotlari samaradorligini yanada oshirish maqsadida ta'lim modellarini qo'llash interfaol uslublardan unumli foydalanish va pedagogik texnologiyalarni zamon talabiga mos ravishda qo'llab ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.”²

Rassom biror bir asar yaratishdan avval u haqda chuqur fikrlashi, shu bilan birga qobiliyat, mahoratni ishga solish ham zarur bo'ladi. Taniqli rassomlar I. Repin «Zaporojliklar», E. Makovskiy «Xiyobonda», V. Perov «Uchovlon» F.Reshetnikov «Yana ikkimi», kabi asarlari orqali o'tgan asrning halq hayotini, turmish tarzini haqqoniy, tasvirlab bera olganlar.

¹ Kompozitsiya asoslarid.darslik.A. Nazilov, I.V. Dmitriyeva, N.X. Xadjibayeva T. <<Yangi asr avlodi>> 2009 9-bet.

² Bobonazarov.Sh. Kompozitsiya mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning muhim ekanligi. *Science and innovation*, 1(B6), 11-(2022).



Bir necha figurali kompozitsiya tuzish uchun odamlarning dam olish yoki mehnat qilish jarayonida uning kasbi, xarakterini, bo'layotgan voqeaning qiziqarli holatini o'rganish lozim bo'ladi. O'zbek rassomlaridan R. Axmedovaning «Tushki dam olish», N. Kashinaning «Doira chaluvchi qiz», 3. Kovalevskayaning «Teatr lojasida» M. Saidovning «Ishga ketishyapti» nomli asarlari maishiy janrda ishlangan asarlar sirasiga kiradi.

Hayotiy kundalik voqealar kompozitsiya echimida rassom tomonidan murakkab ijodiy tahlilidan o'tadi va qog'ozga ko'chiriladi. Kompozitsiya qonuniyatlariga amal qilgan holda tamoshabinga kartina mavzusini ochib berishga harakat qilinadi. Rus tasviriy san'atida ushbu janrida salmoqli ijodi bilan ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri Aleksandr Andreevich Ivanov edi. Rassom o'zining «Isoning xalqqa ko'rinishi» asari uchun ko'plab qalamchizgilar, rangli etyudlar ustida ijod qildi. U o'zining ishlagan etyudlarda insonning ruhiy o'zgarishlari xaqida hikoya qilar ekan, kishilar yuzidagi tabassumni juda mohirona tasvirlab beraolgan.

A.A Ivanovning insonni tabiat quchog'ida ochiq xavoda tasvirlashga intilishi rus tasviriy san'atida yangilik edi. Uning «Plyajdagi bolalar» etyudi tabiat quchog'idagi xolatni, nafis san'at jixatidan moxirona ishlanganligi, quyosh nuri yoritib turgan tabiatda dam olayotgan bolalar, bo'y baravar turli xolatlarda tasvirlangan.

Bu janrda samarali ijod qilgan va bu janr uning ijodida muhim rol o'ynagan rassom I.Repin hisoblanadi. «Ivan Grozniy va uni o'gli shaxzoda Ivan» «Sofiya», «Zaporojliklar» kabi kartinalari rassomning shox asarlari hisoblnaiblanadi. «Ivan Grozniy» asarida intererda to'q fonda yorug' tushib turgan ikki figura orqali asar echimi mohirlik bilan topilgan. Erdagi gilam Grozniy va shaxzodaning liboslari, ularning yuzlaridagi qo'rqinchli ruhiy holat, xonadagi predmetlar to'q ranglarda ustalik bilan tasvirlangan.



Ilya Repinning mukammal ishlangan mashhur asarlaridan yana biri “Kutmagan edilar” kartinasi hisoblanadi. Rassom bu asarni yaratish jarayonida asar qaxramonni turlicha talqin etib ko‘radi. Sungi variantda surgundan ozod bo‘lib, o‘z oilasiga qaytib kelgan inson obrazi tasvirlangan. Surgundan qaytgan odam xonaga kirib kelarkan, uning qiyofasida, ayniqsa yuz-ko‘larida, g‘amginlik, xadiksirash tashvishi borligini ko‘ramiz. Ug‘lini kirib kelishini ko‘rgan qari onasining bukchaygan gavdasi, qo‘llarining qaltirashidan o‘z o‘g‘lini taniganligini, qattiq xayajonlanayotganini tomashabin ham xis etadi. Asar vazmin, kul rang bo‘yoqlar gammasida ishlangan bo‘lib xonaning sal yoritilganligi, xavoning ochiqqligi, dar ruxi nixoyatda ustalik bilan ochib berilgan. “Kutmagan edilar” polotnosi odatdagi maishiy mavzudagi asarlardan ustunligi shundaki, unda katta ijtimoiy mazmun va ma’no kasb etganligini guvohi bo‘lamiz.

Har bir san’at asarini yaratilishida mazmun va g‘oyani asosiy echimi eskizda o‘z aksini topishi lozim bo‘ladi. Izlanishlar jarayonida kompozitsiyaga kerakli detallarni, predmetlarni aniqlab olish, qushish lozim, mavzuda sodir bo‘layotgan voqeaning markaziy qismi topiladi. Keyinchalik eng yaxshi bajarilgan eskiz tanlab olinadi. Kompozitsiya tuzilishini to‘g‘ri topish uchun naturadan - odamlar guruhidan tezkor chizgilar, eskizlar bajarish zarur. Chunki o‘tkir qobiliyat, ijodiy tasavvur, “fantaziyani” shakllantirish aynan shu jarayonda amalga oshiriladi.

Muallifning ijodiy mahsuli, badiiy ifodasi, bu kompozitsiya hisoblanadi, bas shunday ekan tasviriy san’atning barcha janrlarida kompozitsiya yaratish yuksak darajada bilim, ko‘nikma, malaka hamda qobiliyat, salohiyatni talab etadi. O‘zbek tasviriy san’atida maishiy janr XX asrning 20 -30 yillardan boshlab rivojlana boshladi. Samarqandlik rassom L. Bure, o‘zining ijodiy faoliyati davomida “Tandir quruvchilar”(1928 yil), “Maktab qurilishi”, “Paxta terimi” (1930 yil), kabi asarlarini yaratdi. Chizigan tasvirlarda ayrim nuqsonlar mavjud bo‘lsada taxminiy ranglar ifodasi, kartinani hayotiyiligini ko‘rsatishga xizmat qiladi.



O'zining ko'plab asarlarida inson obrazini, yangi hayotni yorqin, jozibali ranglarda tasvirlagan rassomlardan biri Aleksandr Volkov hisoblanadi. Uning 24-30 yillarda yaratgan "Choyxonada", "Eski shahar choyxonasi", "Anorli choyxona" kabi asarlari shular jumlasidandir. Bulardan tashqari rassomg, 1933-1934 yillarda "Qurilishda", "Brigada majburiyat qabul qilmoqda", "Hosil" triptix, "Tashselmash" nomli asalarini yaratib. mehnatkash inson hayoti, mehnatini, Respublikada jadal rivojlanayotgan industriya qudratini o'z asarlarida muhirlab qoldirdi.

O'zbek tasviriy san'atining yorqin siymolaridan yana biri Bahrom Hamdamiydir. U har bir kartinasini yaratishda astoydil sidqidildan muhabbat bilan ijod qilgan. 1937-38 yillar yaratgan "Choyxonada oqshom", "Sevimli qo'shiq", "Tasvir to'garagi" kabi kartinalari tomashta qilgan har bir tomoshabin yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Rassom "Ish tugaganda" (1939 yil) deb nomlangan asarini ishlab tugatdi, 1940 yilda Respublika ko'rgazmasiga qo'yilgan bu asar mutaxassislar tomonidan maishiy mavzuda yaratilgan birinchi va eng yaxshi asar sifatida tan olindi.

Zamondosh rassomlar zamonaviy va an'anviy uslublarni birlashtirib yangi kompozitsiyalar, yangi shakllar yaratishga intilib keladilar. Bunday yondashuvlar yaratilayotgan san'at asarlarida an'anaviy madaniyatning go'zalligini va bugubgi zamonaviy hayotning jushqinligini ko'rsatib beradi. Natijada tomoshabinlar an'anaviy madaniyat bilan zamonaviy hayot o'rtasidagi bog'liqlikni guvohi bo'ladilar.

O'zbekiston tasviriy san'atida maishiy janr, xalqmizning farovon hayotini, urf-odatlarini va madaniyatini, bugungi yashayotgan kuinidan rozi ekanligini aks ettirishda muhim o'rin tutadi. Bu janrda yaratilgan, yartilayotgan asarlar, nafaqat estetik jihatdan, balki tarixiy va madaniy ahamiyatga egadir. O'zbekiston tasviriy san'atida maishiy janr, yosh rassomlar tomonidan davom ettirilib yangi yondashuvlar bilan boyitilmoqda. Bundan sayi harakatlar tasviriy san'atining



rivojlanishida, boyitilishida va xalqning madaniy merosini bizdan kiyingi avlodlarga etkazishda muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G. M. Abduraxmonov. “Tasviriy san’at kompozitsiyasi” Toshkent. 1996.
2. L. Egamov. “Kompozitsiya asoslari” «San’at» jurnali Toshkent. 2005.
3. A. Abdiqodirov. “O`zbekiston tasviriy san’ati: Tarix va rivojlanish”. Toshkent. 2010 .San’at.
4. A.Rashidov.”Maishiy janr va zamonaviy o`zbek san’ati.” Toshkent.2020
5. Kompozitsiya asoslarid.darslik.A. Nazilov, I.V. Dmitriyeva, N.X. Xadjibayeva T. «Yangi asr avlodi» 2009 9-bet.
6. B.Abdullayev.”O`zbek san’atida maishiy janrning estetikasi”T.2021
7. E.Nurmatov.”O`zbek tasviriy san’atida maishiy janr va uning ahamiyati”2024
5. A. Egamberdiev «Janrovaya jivopis Uzbekistana». Izd. Gofur Gulyam Toshkent. 1989
6. Shavdirov, S. A. Podgotovka budущix uchiteley k issledovatel'skoy deyatel'nosti. Pedagogicheskoe obrazovanie i nauka, (2), 109-110.
7. Bobonazarov.Sh. Kompozitsiya mashg'ulotlarida zamonaviy pedagogik texnolo-giyalardan foydalanishning muhim ekanligi. *Science and innovation*, 1(B6), 11-(2022).